Badiiy nasrda real va xayoliy poetoponimlarning qo‘llanilishi va funksional tabiati

Umidabonu Tohirovna Jovbo‘riyeva –
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti 231 - amaliy filologiya guruhi talabasi. E-mail: ujovboriyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasining taniqli yozuvchisi Tog‘ay Murod asarlarida real va xayoliy poetoponimlarning qo‘llanilishi va funksional tabiati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, poetonim, poetoponim, real poetoponim, xayoliy poetoponim.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование и функциональная природа реальных и воображаемых поэтических онимий в произведениях Тогая Мурада, известного писателя из оазиса Сурхан.

Ключевые слова: ономастика, поэтоним, поэтопоним, реальный поэтопоним, воображаемый поэтопоним.

Annotation: This article discusses the use and functional nature of real and imaginary poetic onyms in the works of Togay Murad, a famous writer from the Surkhan oasis.

Keywords: onomastics, poetonym, poetoponym, real poetoponym, imaginary poetoponym.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Tilshunosligimizga o‘tgan asrning 60-yillarida yangi onomastika sohasi kirib keldi va hozirga qadar qator dolzarb mavzular tadqiq etildi. Bugungi kunda onomastika sohasida badiiy matndagi onomastik birliklar ya’ni poetonimlarni tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Onomastika rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlarimiz E.Begmatov va N.Uluqovlarning hammuallifligida nashr etilgan “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da poetonim terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: poetik nom (poetonim)-badiiy nom, ayniqsa, she’riyat tilida atash, nomlash vazifasidan tashqari badiiy-uslubiy vazifada ham qo‘llangan atoqli ot. Poetonimlarning bir necha turlari mavjud: antropoetonim, topopoetonim, zoopoetonim.

Poetonimlar yozuvchi uslubiga qarab maxsus tanlanadi yoki xayoliy tarzda yaratiladi. Poetonimlar asar qahramonlarining ichki dunyosi, xarakteri, yashash tarzini yoritish va asarga maxsus ma'no yuklashga xizmat qiladi. Bundan tashqari asarning ta'sirchanligini oshirish, milliy koloritni ochib berish hamda estetik ruh bag'ishlash kabi vazifalarni ham bajarib keladi.

METODLAR VA O'RGANISH DARAJASI.

Poetonimlarni o'rganishda onomastikaning qator metodlaridan foydalaniladi: tasviriy metod, tarixiy metod, qiyosiy-chog'ishtirma metod, dtilistik, lingvopsixologik metod va hakazolar[4].

Bu yo'nalishda jahon va o'zbek tilshunos olimlari salmoqli ish olib borganlar. Jumladan, O.N. Altuxova tadqiqotida V. Pelevin asarlaridagi nomlar tizimini (poetonimlarni) o'rganib, ularning badiiy olamlarni bog'lovchi makrokontekstual funksiyalarini ochib beradi[3]. O'zbek tilshunos olimasi D.Andaniyozova "Intertekstuallikdoirasida poetonimlar" mavzusida ilmiy ish olib borgan, hamda D.Xudoyberganova bilan birgalikda "O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati"ni yaratdilar.

TADQIQOT NATIJALARI.

Surxon vohasining taniqli yozuvchisi Tog'ay Murod qalamiga mansub "Otamdan qolgan dalalar", "Ot kishnagan oqshom" kabi asarlarida qo'llangan real va xayoliy poetoponimlar haqida so'z yuritamiz. Tog'ay Murod asarlarida poetoponimlar (badiiy joy nomlari) shunchaki voqea sodir bo'ladigan makonni anglatibgina qolmay, balki asarning g'oyasi, xalqning milliy koloritini va qahramonlar xarakterini ochib berishda o'ta muhim funksional vazifalarni bajaradi.

Yozuvchi kitobxonda voqelikka ishonch uyg'otish maqsadida qator real hayotda mavjud bo'lgan Farg'ona, Qo'qon, Toshkent, Denov kabi viloyat va shahar nomlari, o'zi tug'ilib o'sgan qishloq – Xo'jasoat nomi va Vaxshivor, Obshir, Irg'ali, Yormozor singari mahalliy qishloq nomlaridan foydalangan.

Asar voqealari ikkinchi jahon urushi voqealarini, adolatsiz tuzumni, bir so'z bilan "qaro kunlar"ni ochib berar ekan, sho'ro ofitserlari va tergovchilari tomonidan Turkiston xalqini yerga urish uchun ishlatilgan Churkiston, asar qahramoni Aqrab tomonidan istilochilar yurtiga qo'yilgan Cho'chqaiston, personaj tomonidan yurtining, tog'larining go'zalligiga nisbatan qo'yilgan Jamoliston nomlari xayoliy bo'lib, davrning naqadar og'ir kechganligi haqida darak beradi.

Asarlarda keltirilgan real va xayoliy nomlarning funksional tabiati ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan Vaxshivor, Obshir, Xo‘jasoat, Yormozor kabi poetoponimlar misolida so‘zimizni davom ettirsak.

Vaxshivor Denov tumanidagi qishloq nomi. Kelib chiqishi qadimgi eroniy tilda vaxsh (suv tangrisi) var/var (qal’a) - suv xudosi sharafiga qurilgan qo‘rg‘on, Vaxshning qo‘rg‘oni kabi ma’nolarni anglatadi[2]. Surxon vohasida suv obyektlariga boy va tog‘li hudud bo‘lganligi tufayli bu nom ko‘pincha mahalliy gidrografiya va agronimik xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi toponim turiga kiradi.

“Otamdan qolgan dalalar” romanida asar qahramonlaridan biri nutqida uyida gaz yo‘qligidan shikoyat qilib, qo‘shni Obshir qishlog‘idan gaz qaysidir mamlakatga o‘tib yotgani haqida aytib o‘tadi. Obshir toponimi boyliklari talanayotgan, lekin o‘zi mahrumlikda yashayotgan xalq taqdirining ramziy nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi. “…- Gaz? Bizda gaz nima kiladi? - Gazimiz bor, ana, Obshir qishlog‘i adog‘idan quvurda o‘tib yotibdi. - Quvurda o‘tib yotsa, qaysi bir mamlakatga o‘tib ketayapti-da...”. Obshir Oltinsoy tumanidagi qishloq nomi bo‘lib, fors-tojikchadan “sharshara yonidagi qishloq” ma’nosini ifodalaydi[2].

Tog‘ay Murod tavallud topgan qishloq nomi, Xo‘jasoat, antroponimdan transonimizatsiya usulida yasalgan. Islom dini tarqalishi va muqaddas shaxslar (avliyolar, sahobalar) nomi bilan chambarchas bog‘liq. “Xo‘ja” – hurmatli, obro‘-e’tiborli kishi yoki diniy unvonni anglatadi. bu nomning asarda keltirilishi hududning muqaddasligi, tarixiy maskan ekanligini ifodalanib, tarixiy xotirani asrab qolish funksiyasini bajarib kelgan.

“Oqpodsho mo‘min-mazlumni ana shu Yormozor masjid-madrasa qoshida to‘dalaydi. Mo‘min-mazlum mung‘ayib-mung‘ayib turadi”. Yormozor toponimi Farg‘ona viloyatidagi qishloq hisoblanadi hamda ikki so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, yor va mozor qismlaridan iborat. “Yor” so‘zining jar ma’nosini anglatishini M.Qoshg‘ariy o‘z davrida aytib o‘tadi. Mozor O‘zbekistonda toponimlar tarkibida ko‘p uchraydi. Bu so‘z arabcha bo‘lib, “sig‘inish joyi” ma’nosini anglatadi[1]. Yormozor real toponim bo‘lib, asarda qo‘llanilishi voqelikni aniq tarixiy makonga bog‘laydi va kitobxonning tasvirlanayotgan voqelikka ishonchini orttiradi.

“…- So‘kayotganim yo‘q, - dedi Uspenskiy. - Mochani mocha deydi-da. Sen qanday churka, zaifang mocha churka! Yurting — Churkiston!

- Unday dema! Turkiston de, Turkiston! Men O‘rusiyangni Cho‘chqaiston deyotganim yo‘q!..”

Bu yerda “Churkiston” (rus ofitseri tili) va “Turkiston” (vatanparvar tili)

o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali asardagi g‘oyaviy kurash yaqqol namoyon bo‘ladi. Yurti nomining tahqirlanishiga bardosh bera olmay O‘rusiyani Cho‘chqaiston nomi bilan atash orqali asar qahramoni Aqrabning milliy g‘ururining toptalmasligiga qarshi kurashishi va istilochilarga nisbatan nafrat tuyg‘usi yozuvchi tomonidan mahorat bilan ochib berilgan.

Shu bilan birgalikda, asarda yurtining chiroyi, go‘zalligini ta’riflash maqsadida asar qahramoni tomonidan Jamoliston poetoponimi qo‘llanadi.

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi va shoirlar tomonidan real va xayoliy nomlarning qo‘llanilishi, asar ruhiyatini, voqealar rivojini o‘quvchiga aniq yoritib berishni maqsad qiladi. Real nomlardan foydalanish o‘quvchida asarga nisbatan ishonch tuyg‘usini oshiradi, hamda milliy qadriyatlarni, an’analarni, tarixiy va geografik muhitni shakllantirishda yordam beradi va real nomlar orqali voqelik yanada ta’sirchan bo‘ladi.

Yozuvchilar real qahramon, joy nomlarini yashirish maqsadida ba’zan xayoliy va to‘qima nomlardan foydalanadi. Bu nomlar orqali asarda muallif o‘ziga xos fantastik muhit hamda mutlaqo yangi olam yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at/tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
2. T Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati.-T: “Yangi asr avlodi”, 2007 – 88 b.
3. Toshova G. T. Badiiy matnda qo‘llangan onomastik nomlarning funksional-stilistik xususiyatlari. Lingvistika: o‘zbek tili magistr darajasi uchun diss. - Termiz.: 2022.
4. Urganch davlat universiteti. O‘zbek filologiyasi kafedrasi. Onomastika fanidan o‘quv – uslubiy majmua. – Urganch: 2022. – 92 b.
5. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar.-Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahriri, 1994. – 168 b.
6. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. “Ziyouz.com” kutubxonasi, 2008. – 69 b.
7. https://ziyonet.uz/ru
8. https://www.wikipedia.org/